



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 510 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabihev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarcand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahriri yati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O' – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda	
ta'limi o'yinlarning ahamiyati	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi	60
Isayeva Mushtari Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini	
shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:	
a Review of Recent Literature	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga	
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun	
"Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Mетодические возможности совершенствования обучения научной	
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari	
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiylarini shakllantirish texnologiyasi	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	148
Mamadiyorov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergasheva	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	166
Xudoberganova Matluba Quisoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzallikkleri.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабирович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes	189
Meliboyev Zuxriddin Isroiil ugli	



O'zbekistani tarixi darslari pedagogik improvisatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari	192
Ergasheva Muhayyoxon G'anjonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	
Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik	201
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni	204
Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi	
The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach	207
Abdulkhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi	
Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati.....	210
Abdullahayeva Ugiloy Djurayevna	
Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti	214
Aripova Sayida Abdulaxatovna	
Raqamli etiket: zamonaviy ta'lilda yangi madaniyat talabi	217
Rasuljon Atamuratov	
Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi.....	221
Azizova Shodiya Utkur qizi	
Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari	224
Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna	
O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash.....	228
Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li	
Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar	232
Ochilova Sarvinoz Salim qizi	
Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari	236
Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi	
Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari.....	239
Risvayeva Charos Zaydilla qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriquqlarning samaradorligi.....	242
Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon	
Bo'lajak o'qituvchillarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli	245
Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi	
Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni	248
Umirova Gul'dona Jamoliddin qizi	
Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choraları	251
Ungalov Akmal Navruzovich	
Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi	254
Xabirova Zulfiya Anvarbekovna	
Talabalar ijtimoiy faoliyk indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati	257
Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li	
Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'larning ahamiyati.....	260
Yuldasheva Mastura Islamovna	
Пословицы и поговорки как отражение картины мира	263
Алламбергенова Шахноза Садатдиновна	
Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni	268
Abdumannopov Muhammadsohib Muhammadyusuf o'g'li	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar.....	272
Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna	



Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish.....	277
Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi	
Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari.....	280
O'rinovala Nilufar Muhammadovna	
Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiylar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi.....	286
Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li	
Buyuk ipak yo'lli – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida.....	290
Tugalova Madina Erkin qizi	
Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya.....	293
Umarova Muyassarxon A'zamjonovna	
Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari.....	297
Xanova Dilrabo	
Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies	303
Kholidova Lutfiya Umurzoqovna	
Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli	306
Ametova Guljamilya Elrusovna	
Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish.....	310
Baydjanov Bekzod Xaitboyevich	
Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati.....	314
Choriyeva Feruza Amrullayevna	
Ibrayim Yusupovning "Sakssovul" she'rini o'qitish metodikasi	317
Darmenov Allayar Abdilqaq uli	
Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi....	320
Ergasheva Anbar Shaymardan qizi	
Oiladagi zo'ravonlik: sababları, oqibatlari va psixologik yondashuvlar	324
Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi	
Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari.....	329
Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi	
Nodavlat ta'limga tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish.....	334
Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li	
Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ...	339
Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi	
Talabalarni ma'nnaviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini	346
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari.....	350
Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi	
Ma'nnaviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni.....	356
Abdullahov Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li	
Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari	361
Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash.....	365
Boymirzayev Farkodjon Raxmatjon o'g'li	
Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari.....	371
Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi	
Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri	375
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'mni	378
Isoqov Nuriddin Halim o'g'li	
Bo'lajak bosholang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish	382
Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna	
Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности	386
Марасулова Доно Нигматуллаевна	

Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati	389
Ungarbayeva Ayman Davletbayevna	
Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboschchisi	393
Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi	
Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish	396
Yulchiyeva Shoxsanam	
Oсобенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе	399
Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович	
Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения.....	403
Р. К. Ауезова	
Воздействие медиа в контексте социального формирования личности.....	407
Хайдарова Гулинуру Нурбек кизи	
Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов	411
Чинкулова Гулмехра Баҳроновна	
O'qituvchining o'z darsini tahlil qilishi: tajriba va amaliyot	417
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantirishda ma'nnaviy-axloqiy tadbirlarning o'rni	423
G'aybullayeva Sabohat Ulug'bek qizi, Karshihev Jaxongir Abdirayimovich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'llim o'qituvchilarining adabiy kompetensiyalarini rivojlantirishda matn ustida ishlashning ahamiyati.....	426
Islomova Xafiza Azamatovna	
O'quvchilarda estetik qobiliyatlarni shakllantirishda xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy-metodik salohiyati	430
Kaxarova Gulnora Sa'dullayevna	
Boshqaruv kompetentligi tushunchasining pedagogik psixologik va menejment sohalaridagi ilmiy asoslari va evolyutsiyasi.....	434
Mamatqulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Muhandislik ta'llimida zamonaviy kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning konstrukturlik faoliyatini rivojlantirish.....	438
Muxitdinov Abduvahob Abduvalievich	
Turizm sohasiga oid terminlarni o'qitishda axborot texnologiyasi orqali takomillashtirish	442
Nishanova Hafiza Vafoqulovna	
Ilmiy maqola yozish kompetensiyasini rivojlantirishda statistik metodlarni integratsiyalashning ta'llimi samaradorligi	446
Rahimova Indira Qudrat qizi	
Sotsiolingvistikaning asosiy tushunchalari va konsepsiyalari.....	451
Rustamova Mohimbonu Maxammadjon qizi	
Pedagogik mahoratni baholashda O'zbekiston va Kanada tajribasining qiyosiy tahlili	455
Tursinova Zoxida Sharabidinovna	
Basketbolning insonning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga ta'siri: ilmiy tahlil.....	463
Umarjanov Alimardon Alisher o'g'li	
Talaba qizlar psixik salomatligi xususiyati deviant xulq-atvorni keltirib chiqaruvchi omil sifatida.....	466
Xasanova Mashxura Abduvalievna	
Ta'llim jarayonida o'yinlardan samarali foydalanish texnologiyasi.....	471
Ortiqova Yulduz Akram qizi	
Innovatsion ta'llim muhitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirish	475
Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna	
Talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni aniqlashda L. Starkining tanqidiy fikrlashni baholaydigan modifikatsiya qilingan testidan foydalanish metodikasi	479
Egamberdiyeva Nodira Melibayevna, Xaydarova Ra'no Anvarovna	
Akademik litseylarda fizikani o'qitish jarayoniga "Case-Study" metodini integratsiyalash	484
Batirov Behzod Baratovich	
Nasriy asarlarni o'rgatish samaradorligini oshirish	489
Maftunaxon Akbarova	



Autik spektr buzilishi bo'lgan bolalarda sun'iy intellekt yordamida shaxsiylashtirilgan o'qitish	493
Norboyeva Zamira Ravshanbekovna	
Milliy libos dizaynida an'anaviy va zamонавиy elementlar uyg'unligi	496
Xo'jamurodova Sevinch Abdilmajidovna	
Роль дидактических игр в развитии пространственного воображения учащихся	499
Валиев А. Н., Иброхимова Д. Н.	
Технология проблемного обучения как средство формирования критического мышления при обучении русскому языку	505
Собирова Гулибарно Зайнитдин кизи	

TALABA-QIZLARDA ONGLI VATANPARVARLIKNI ANIQLASHDA L. STARKINING TANQIDIY FIKRLASHNI BAHOLAYDIGAN MODIFIKATSIYA QILINGAN TESTIDAN FOYDALANISH METODIKASI



Egamberdiyeva Nodira Melibayevna

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti direktori

ORCID: 0000-0002-0250-0370



Xaydarova Ra'no Anvarovna

TDSHU katta o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-6117-6937

Annotatsiya: Ushbu maqlada talaba-qizlarda ongli vatanparvarlik darajasini baholashda tanqidiy fikrlashning kognitiv ko'nikma sifatidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shu maqsadda L. Stark tomonidan ishlab chiqilgan “Critical Thinking Skills in 20 Minutes a Day” testining qisqartirilgan va madaniy jihatdan moslashtirilgan, 10 savoldan iborat modifikatsiya qilingan versiyasi ishlab chiqildi. Test O'zbekiston sharoitiga mos tarzda o'zbek tiliga tarjima qilinib, tilshunoslik hamda kontekstual jihatdan adaptatsiya qilindi. Tadqiqotda test topshirilarining kontent-validligi, baholash mexanizmlari va natijalarni talqin qilish imkoniyatlari tahlil qilinib, ushbu vosita orqali talabalarning fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati hamda tahliliy tafakkur darajasi aniqlanishi ko'rsatib berildi. Mazkur test pedagoglar va psixologlar uchun ongli vatanparvarlikni baholashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ongli vatanparvarlik, tanqidiy fikrlash, modifikatsiya qilingan test, kognitiv ko'nikma, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyat, kontent-validlik.

Abstract: This article analyzes the significance of critical thinking as a cognitive skill in assessing the level of conscious patriotism among female university students. For this purpose, a shortened and culturally adapted 10-question version of the “Critical Thinking Skills in 20 Minutes a Day” test, developed by L. Stark, was created. The test was translated into Uzbek and linguistically and contextually adapted to reflect local specificities. The study examines the content validity of the test items, assessment mechanisms, and strategies for interpreting results. It demonstrates that the test can effectively identify students' civic attitudes, social responsibility, and analytical thinking abilities. This modified version serves as a practical tool for educators and psychologists in evaluating conscious patriotism.

Key words: conscious patriotism, critical thinking, modified test, cognitive skill, civic attitude, social responsibility, content validity.



Аннотация: В статье рассматривается значимость критического мышления как когнитивного навыка в процессе оценки уровня осознанного патриотизма у студенток. С этой целью была разработана сокращённая и культурно адаптированная 10-вопросная версия теста “Critical Thinking Skills in 20 Minutes a Day”, автором которого является Л. Старк. Тест был переведён на узбекский язык и адаптирован с учётом лингвистических и контекстуальных особенностей. В исследовании проанализированы контентная валидность заданий, механизмы оценки и возможности интерпретации результатов. Показано, что данный инструмент позволяет определить уровень гражданской позиции, социальной ответственности и аналитического мышления студенток. Модифицированный тест представляет собой эффективное средство для педагогов и психологов при оценке уровня осознанного патриотизма.

Ключевые слова: осознанный патриотизм, критическое мышление, модифицированный тест, когнитивные навыки, гражданская позиция, социальная ответственность, контентная валидность.

KIRISH

Ongli vatanparvarlik – bu shunchaki hissiy holat emas, balki ijtimoiy mas'uliyat, axborotni tahlil qilish, baholash va asosli qaror qabul qilish qobiliyatlariga tayanuvchi murakkab psixologik-pedagogik jarayondir. Sharq tillarini o'rGANAYOTGAN talaba-qizlar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish orqali turli madaniyatlar o'rta-sidagi bog'liqlik va o'xshashliklarni anglashni o'zlashtiradilar. Bu esa to'g'ri muloqot, empatiya va o'zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda maqsad nafaqat boshqa madaniyatlarga hurmat bilan qarashni shakllantirish, balki shaxsda o'z milliy madaniy noyobligiga va uning ijtimoiy ahamiyatiga ongli munosabatni rivojlantirishdan iboratdir [12].

Shu nuqtai nazardan, tanqidiy fikrlash darajasini ishonchli baholay oladigan ilmiy asoslangan vositalarga ehtiyoj mavjud. Ana shu maqsadda amerikalik muallif Loren Stark tomonidan ishlab chiqilgan “Critical Thinking Skills in 20 Minutes a Day” testidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi. Mazkur test tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlari – tahlil, mantiqiy xulosa chiqarish, dalillilik, taxminlarni farqlash, asosli tanqid va qaror qabul qilish kabi ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu test talaba-qizlarning faqat bilim darajasining emas, balki Vatanga nisbatan ongli, mas'uliyatlari va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish salohiyatini ham baholash imkonini beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunga kelib, ilmiy adabiyotlarda tanqidiy fikrlash tushunchasiga oid turli xil ta'riflar shakllangan bo'lib, u ko'pincha “tafakkur haqidagi tafakkur” sifatida izohlanadi. Psixolog D. Mayersning fikricha, tanqidiy fikrlash – bu har qanday mulohaza va xulosani ko'r-ko'rona qabul qilmaydigan, aksincha, ularni tahlil qiladigan, yashirin qadriyatlarni anglaydigan hamda mavjud dalillarni baholaydigan tafakkur turidir [6].

Tadqiqotchi R. Ennis esa tanqidiy fikrlashni “oqilona va refleksiv fikrlash bo'lib, unga nima ishonish va qanday harakat qilish kerakligini aniqlashga yo'naltirilgan” deb ta'riflaydi [11]. Shu bilan birga, M. Skriven va R. Paul tanqidiy fikrlashni bilim va tajriba asosida shakllanadigan, ongli ravishda tartiblangan, faol va mahoratlil tahlil, umumlashtirish, qo'llash hamda baholash jarayoni deb hisoblaydi [10; 8].

D. Halpern tanqidiy fikrlashni esa aniq maqsadga yo'naltirilgan, nazorat qilinadigan va asosli kognitiv strategiyalar majmui sifatida talqin etadi [4]. Ushbu strategiyalar real muammolarni hal qilish, xulosalar chiqarish, ehtimollikni baholash va qaror qabul qilishda qo'llaniladi.

Tanqidiy fikrlash tushunchasining muhim jihatlari orasida D. Kluster quyidagilarni alohida ajratib ko'rsatadi:

- fikr yuritishda mustaqillik;
- bilimlarga boylik (axborot zichligi);
- masala qo'yish va savollarni aniqlashdan boshlanishi;
- asosli dalillarga intilish;
- ijtimoiy xarakterga egaligi (ya'ni fikrning ifoda topishi, muhokamalar, nutqlar va nashrlarda shakllanishi) [5].

P. Fasion rahbarligida tayyorlangan ekspertlar hisobotida tanqidiy fikrlashning 35 ta asosiy strategik komponenti keltirilgan bo'lib, ular ushbu ko'nikmani chuqur va tizimli o'rganishga imkon beradi [3]. Mazkur komponentlarning ko'pchiligi M. Lipman va R. Paul tomonidan oddiy tafakkur bilan tanqidiy tafakkur o'rta-sidagi farqlarni ko'rsatuvchi qiyosiy ro'yxatlar orqali ham yoritilgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolaning maqsadi – talaba-qizlarda ongli vatanparvarlikni shakllantirishda tanqidiy fikrlashning psixologik-pedagogik ahamiyatini yoritish, shuningdek, ushbu kompetensiyanı aniqlash va baholashda L. Starkning [9] tanqidiy fikrlash testidan foydalanish imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat.

L. Stark tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash testini modifikatsiya qilish ishlari 2023-yilda boshlangan bo'lib, manba sifatida test joy olgan ochiq internet resurslaridan foydalaniłgan.

O'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinlar ekan, tanqidiy fikrlashni baholashga mo'ljallangan testlar orasida mazmuni va maqsadi bo'yicha ushbu testga yaqin metodika aniqlanmadi. Mavjud metodikalar, asosan, intellektual salohiyat (IQ) yoki umumiy tafakkur darajasini o'lchovchi vositalardan iborat bo'lib, ular tanqidiy fikrlashning murakkab kognitiv, reflektiv va kommunikativ jihatlarini to'liq qamrab olmaydi.

Shu sababli Stark testiga asoslangan holda 10 topshiriqdan iborat qisqartirilgan va modifikatsiya qilingan variant ishlab chiqildi hamda talaba-qizlarning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini baholashda qo'llanildi. Ushbu modifikatsiyalangan test tanqidiy fikrlashni talaba-qizlarning ongli vatanparvarlik darajasi bilan bog'liq kognitiv ko'nikma sifatida baholash imkonini berdi. Uning modifikatsiya jarayoni va qo'llash mexanizmi batafsil tafsiflandi.

Xususan, diagnostik jarayonda talaba-qizlarning ongli vatanparvarlikni anglash va uni amaliy jihatdan namoyon etish salohiyatini to'liq baholash maqsadida ularda tanqidiy fikrlash darajasi ham aniqlab borildi. Chunki tahliliy fikrlash – shaxsda fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat va ijtimoiy ongni shakllantiruvchi asosiy funksional kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Shu maqsadda amerikalik muallif L. Starkning "Critical Thinking Skills in 20 Minutes a Day" nomli testidan [9] foydalanishga qaror qilindi. Aslida 30 ta topshiriqdan iborat bo'lgan ushbu testdan madaniy jihatdan universal hamda kontent-validlik indeksi (CVR) 0,78 dan yuqori bo'lgan 10 ta savol tanlab olindi.

Modifikatsiya jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- dastlab test matni ikki mustaqil tarjimon tomonidan o'zbek tiliga o'g'irildi;
- keyin teskari tarjima ("back-translation") orqali asl mazmunga semantik moslik tekshirildi;
- mazmunan tushunarsiz, lokal kontekstdan uzoq yoki Amerika madaniyatiga xos ayrim elementlar o'zgartirilib, mahalliy talabalarning ijtimoiy-madaniy tajribasiga moslashtirildi.

Quyidagi jadvalda ayrim topshiriqlar misol tariqasida original matn, so'zma-so'z tarjima va adaptatsiya qilingan versiyalarda keltirilgan (1-jadvalga qarang). Masalan, AQSh Oliy sudi haqidagi topshiriq o'rniiga O'zbekiston ta'lim tizimi haqidagi holat berildi yoki "Boston Red Sox" sport jamoasi misoli o'rniiga sharqshunoslik yo'nalishidagi talabalar faoliyatiga oid mantiqiy taxmin shakllantirildi. Bunday yondashuv topshiriqning kognitiv yuklamasini saqlagan holda, uni respondentlar uchun yanada tushunarli va kontekstual jihatdan yaqinlashtirish imkonini berdi.

1-jadval: L.Starkining tanqidiy fikrlash testining o'zbek talabalari uchun modifikatsiya qilingan variantlari

No	Original	So'zma-so'z o'zbekcha tarjima	Adaptatsiya
1	Do people who stay in their birthplace succeed more?	Tug'ilgan joyida qolganlar ko'proq muvaffaqiyatga erishadimi?	Bu tabiiy: qayerda tug'ilgan bo'lsang, o'sha yerda kerak bo'lasan.
2	When is it better to use a library than the Internet?	Qachon kutubxonadan foydalangan ma'qul, internetdan ko'ra?	Qaysi holatda internetdan ma'lumot qidirgandan ko'ra kutubxonaga murojaat qilgan ma'qul?
3	Our hockey team hasn't lost this season – likely reason?	Hokkey jamoamiz yutqazmadni sababi?	O'zbekiston futbol terma jamoasi yutqazmadni sababi?
4	Why must we evaluate information found on the Internet?	Internetdagagi ma'lumotni nega baholashimiz kerak?	Internetda topilgan ma'lumotni baholashning eng muhim sababi qaysi? ...
5	You are writing a report on the recent decisions of the U.S. Supreme Court.	Siz AQSh Oliy sudi yaqinda qabul qilgan qarorlar bo'yicha hisobot yozayapsiz.	O'zbekiston ta'lim tizimiga oid yangi qarorlarni o'rganmoqchi bo'lsangiz.
6	You want to learn more about the old trails through the forest in your city.	Siz shahringizdagi o'rmondan o'tgan eski yo'llar haqida ko'proq bilishni xohlaysiz.	Shahringizdagi tarixiy yodgorliklar va madaniyatni o'rganmoqchi bo'lsangiz.
7	You want to know the historical performance of the stocks you are considering buying.	Siz sotib olishni rejalashtirayotgan aksiyalarning tarixiy dinamikasini bilishni xohlaysiz.	Ta'lim krediti foiz stavkalarini taqqoslayotgan bo'lsangiz.
8	The Boston Red Sox haven't won the World Series in almost a hundred years. They won the American League playoffs in 2003. The Red Sox will lose the Series.	"Boston Red Sox" deyarli yuz yildan beri Jahan seriyasida g'alaba qozonmagan. Ular 2003 yilda Amerika Ligasi pley-offida g'alaba qozonishdi. "Red Sox" seriyani yutqazadi.	Sharq filologiyasi yo'nalishidagi talabalarning darsdan tashqari repetitorlik bilan shug'ullanishi ko'paydi. Ular kurs ishlarini qoniqarli darajada himoya qilishdi. Shunday ekan, 6-semestrda ular kreditga qolishadi.



9	Vote for me, and I promise our schools will improve. My opponent just wants to cut the school budget!	Menga ovoz bering, men maktablarimiz yaxshilanishini va'da qilaman. Mening raqibim esa faqat maktab byudjetini qisqartirmoqchi!	Menga ovoz bering - men o'zbek san'atini rivojlantirishga yordam beraman!
10	When Max realized he had a cold, he started taking Cold-Go-Away. Four days later, he felt much better thanks to Cold-Go-Away.	Maks o'zi shamollaganini anglaganida, u Cold-Go-Away (Dorining nomi) qabul qilishni boshladi. 4 kundan so'ng u o'zini ancha yaxshi his qildi - bu Cold-Go-Away tufayli bo'ldi.	Kasal bo'lib qolib, limonli choy ichdim. Bir haftadan keyin tuzalib ketdim - demak, limonli choy yordam berdi.

Modifikatsiyalangan test shakli oliy ta'lil muassasalarining psixologiya, pedagogika va filologiya yo'naliishlarida faoliyat yuritayotgan 6 nafar mutaxassis tomonidan ko'rib chiqildi va mazmuniy hamda tilshunoslik nuqtai nazaridan ma'qullandi. Hisoblangan kontent-validlik indeksi (CVI) 0,86 ni tashkil etdi, bu esa test topshiriqlari yetarli darajada ishonchli va moslashtirilganligini ko'rsatadi.

Modifikatsiya qilingan 10 savollik test tajriba tariqasida 3-kursda tahsil olayotgan 35 nafar talaba-qizga qo'llanildi. Testni bajarish uchun o'rtacha 15–20 daqiqa vaqt ketdi, savollar orasida noaniq yoki ikki ma'noli ifodalar aniqlanmadи. Yakuniy test shakli original testning tanqidiy fikrlashni baholashga qaratilgan funksional vazifasini saqlagan holda, talabalarning madaniy-ijtimoiy tajribasiga moslashtirilgan samarali va ixcham o'zbekcha versiya sifatida shakllantirildi.

Modifikatsiya qilingan tanqidiy fikrlash testi – bu kognitiv qobiliyatlarni aniqlovchi obyektiv baholash vositasi bo'lib, uni individual yoki guruh shaklida qo'llash mumkin. Testda 10 ta topshiriq mavjud bo'lib, har bir savolga faqat bitta to'g'ri javob berilgan. Test bir yo'naliishi (bir faktorlu) bo'lib, yakunda umumiy ball (0 dan 10 gacha) hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich talabalarning tanqidiy fikrlash darajasini aniqlashda xizmat qiladi.

Baholashda normativ ma'lumotlarga asoslangan yondashuv qo'llanishi mumkin, biroq ushbu bosqichda shakllantirilgan namunaviy guruh ($n = 35$) asosida aniqlangan mezonlar orientir (yo'naltiruvchi) xarakterga ega bo'lib, ularni umumlashtirish emas, balki lokal tahlil uchun qo'llash tavsiya etiladi. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda ijtimoiy-demografik jihatdan kengroq auditoriyalar uchun lokal normativ bazalarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Test topshiriqlari har biri alohida tanqidiy fikrlash jarayonini (tahlil, xulosa, baholash, dalillilik va boshqalar) aniqlashga mo'ljallangan bo'lib, natijalar asosida sifatli (kvalitativ) tahlil ham amalga oshiriladi. Ya'ni, qaysi turdagи topshiriqlarda respondentlar qiynalayotgani aniqlanib, shaxsiy yoki guruhiy rivojlantirish tavsiyalari ishlab chiqiladi.

Testni bajarish uchun maksimal vaqt 30 daqiqa etib belgilangan bo'lsa-da, ko'pchilik ishtirokchilar uni 15–20 daqiqada yakunlashgan. Bu esa testning zamonaviy talabalarga mos, ixcham va funksional ekanini ko'rsatadi. Test 16 yoshdan yuqori bo'lgan shaxslar, xususan, talaba-yoshlar uchun mo'ljallangan. Biroq o'qish malakasi sust, tahliliy tajribasi cheklangan yoki axborotga kirish imkoniyati cheklangan ayrim qatlamlar (masalan, chekka hudud aholisi) testni to'liq bajara olmasligi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Juda yuqori natijalar (8–10 ball) respondentda tanqidiy fikrlashning asosiyo ko'nikmalari – tahlil, deduksiya, induksiya, mantiqiy baholash, refleksiya, hissiy nazorat va manipulyatsiyani aniqlash qobiliyatlarining rivojlanganligini ko'rsatadi. Bunday shaxslar odatda murakkab axborot oqimida mustaqil qaror qabul qilish, noaniq vaziyatlarda optimal yechim topish va ijtimoiy mas'uliyatni anglab harakat qilishga qodirdir. Ular ongli vatanparvarlik kabi murakkab psixologik tushunchalarini chuqur anglab, uni faol amaliy faoliyat orqali ifoda eta oladilar.

Aksincha, juda past natijalar (0–3 ball) respondentda tanqidiy fikrlash mexanizmlarining zaifligini, ya'ni mantiqiy fikrlash, dalil va faktlarni ajrata olish, manipulyatsiyani aniqlash hamda xolis baholash kabi ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligini bildiradi. Bunday shaxslar muhokamalarda o'z fikrini asoslashda qiyonaladilar, ko'pincha hissiy yoki irrasional qarorlar qabul qilishga moyil bo'ladilar hamda stereotiplar yoki tashqi ta'sirlarga oson berilishlari mumkin. Ular odatda vatanparvarlikni chuqur tahlil qilmasdan, uni hissiy-millatchilikka asoslangan yondashuvlar orqali baholaydilar.

Shu sababli, past natjalarni ko'rsatgan respondentlar uchun tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashg'ulotlar, ta'limi dasturlar va axborot savodxonligi bo'yicha treninglar tavsiya etiladi. Bunday yondashuv ularning ijtimoiy moslashuvchanligi, fuqarolik pozitsiyasi va ongli vatanparvarlik salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan psixometrik tadqiqotlar natijasida amerikalik muallif L. Starkning “Critical Thinking Skills in 20 Minutes a Day”^[9] testining qisqartirilgan va madaniy jihatdan moslashtirilgan variantini O'zbekiston oliy ta'lim tizimida qo'llashga yo'naltirilgan modifikatsiya jarayoni muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Test topshiriqlarining asosiy mazmuni, mantiqiy tuzilmasi va baholash mezonlari iloji boricha saqlangan holda, madaniy hamda tilshunoslik nuqtai nazaridan kontekstual muvofiqlik ta'minlandi.

Modifikatsiya qilingan test o'zining psixometrik ko'rsatkichlari (ishonchlilik, diskriminativlik, kontent-validlik) orqali tanqidiy fikrlash darajasini baholash uchun yetarli darajada ishonchli va samarali vosita ekanligini ko'rsatdi. Uni talabalarning ongli vatanparvarlik darjasini bilan bog'liq kognitiv kompetensiyalarni aniqlashda, shuningdek, fuqarolik ongini, mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini va tahliliy tafakkurni o'rganishda qo'llash mumkin.

Mazkur test pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy fanlar sohasidagi tadqiqotchilar, shuningdek, talabalarda fikrlash sifatini shakllantirishga qiziqqan mutaxassislar uchun amaliy ahamiyatga ega vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. U psixodiagnostika, maslahat berish, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar va o'quv jarayonida keng qo'llanish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, test natijalari sifatlari (kvalitativ) tahlil imkonini ham beradi: noto'g'ri bajarilgan topshiriqlar asosida tanqidiy fikrlashdagi zaif jihatlar aniqlanib, ularni rivojlantirish bo'yicha pedagogik tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin. Bu esa talabalar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali ongli vatanparvarlikni shakllantirishda samarali metodik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anderson, L. W., Krathwohl, D. R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives / L. W. Anderson, D. R. Krathwohl. – New York: Longman, 2001. – 352 p.
2. Dewey, J. Democracy and Education: An Introduction to the Philosophy of Education / J. Dewey. – New York: Macmillan, 1916. – 434 p.
3. Facione, P. A. Critical Thinking: A Statement of Expert Consensus for Purposes of Educational Assessment and Instruction / P. A. Facione. – Millbrae, CA: The California Academic Press, 1990. – 50 p.
4. Halpern, D. F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking / D. F. Halpern. – 4th ed. – Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2003. – 478 p.
5. Claster, D. G. Critical Thinking and Rational Thought / D. G. Claster // Journal of Educational Psychology. – 2001. – Vol. 93(3). – P. 476–489.
6. Майерс, Д. Психология / Д. Майерс ; пер. с англ. – СПб.: Питер, 2007. – 688 с.
7. Lipman, M. Thinking in Education / M. Lipman. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 276 p.
8. Paul, R., Elder, L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning and Your Life / R. Paul, L. Elder. – Upper Saddle River, NJ: Pearson Education, 2006. – 528 p.
9. Starkey, L. Critical Thinking Skills Success in 20 Minutes a Day / L. Starkey. – New York: Learning Express, 2002. – 208 p.
10. Скривен, М., Пол, Р. Критическое мышление как процесс / М. Скривен, Р. Пол // Э. Дж. Макмиллан (ред.). Критическое мышление и образование. – М.: Логос, 2000. – С. 25–46.
11. Эннис, Р. Критическое мышление / Р. Эннис // Педагогика. – 1995. – № 4. – С. 10–15.
12. Хайдарова Р. А. Влияние критического мышления на развитие патриотизма // Inter Education & Global Study. – № 3(2). – С. 145–150. – 2024.
13. Khaydarova, R. A. Project-Based Educational Technology as a Method for Developing Social Activity of Students // Intersections of Faith and Culture: American Journal of Religious and Cultural Studies. – Vol. 3(3). – P. 44–47. – 2025.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
 - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
 - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03** Maxsus pedagogika
 - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07** Ta'limda menejment
 - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00** Tarix fanlari
 - 19.00.00** Psixologiya fanlari
 - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00** Kimyo fanlari
 - 03.00.00** Biologiya fanlari
 - 09.00.00** Falsafa fanlari
 - 10.00.00** Filologiya fanlari
 - 11.00.00** Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.